

Akademik litsey dasturlari doirasida huquqiy fanlar bo'yicha bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash

T/r	Savollar
Davlat va huquq asoslari	
1.	Huquq tizimi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
2.	Huquq normasida sanksiyaning asosiy mazmun va maqsadini yoritib bering.
3.	Huquqiy tizim deganda nimani tushunasiz?
4.	Huquq va adolat tushunchalarining o'zaro nisbati.
5.	Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalariga ta'rif bering.
6.	Davlat boshqaruvining Respublika shakliga xos bo'lgan belgilarni O'zbekistonning davlat boshqaruv shakliga bog'lagan holda o'z fikringizni batafsil tushuntirib bering.
7.	Normativ-huquqiy hujjatlarning turlarini tahlil qiling.
8.	Huquq funksiyalari ikki xil nuqtai-nazardan, ya'ni maxsus yuridik (tor ma'noda) va umumijtimoiy (keng ma'noda) tasniflashlanadi. Shundan kelib chiqib, huquqning Maxsus yuridik funksiyalari to'g'risida o'z fikringizni batafsil tushuntirib bering.
9.	Huquq normalari ijtimoiy normalar tarkibiga kiruvchi axloq, odat, odob, jamoat tashkilotlarining normalaridan farq qiladi. Shundan kelib chiqib, huquq normasi belgilari yuzasidan o'z fikringizni bayon eting.
10.	Huquq normasining tuzilishi deganda – uning yuridik faoliyati erkinligini ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan zarur elementlarning majmui yoki birligi tushuniladi, shundan dispozitsiya to'g'risida o'z fikrlaringizni bildiring.
11.	“Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunda normativ-huquqiy hujjatlarga quyidagicha tushuncha berilgan: “Normativ-huquqiy hujjat ushbu Qonunga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir”. Shundan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlarning turlari to'g'risida fikr yuriting.

12.	Jamiyat hayotining eng asosiy islohotchisi davlat va uning organlari hisoblangan bir davirda, ommaviy huquqning sohasi hisoblangan Ma'muriy huquq keng rivojlanib kelmoqda. Sizdan Ma'muriy huquq tushunchasini yoritib berishingizni so'raymiz.
13.	Ma'muriy-huquqiy munosabatlar qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
14.	Ma'muriy huquqning tartibga solish predmeti (ijtimoiy munosabatlar doirasi)ni muhokama qiling.
15.	Ma'muriy huquqning tartibga solish uslubini yoritib bering.
16.	Ma'muriy-huquqiy normalarning tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qiling.
17.	Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subyeksi, obyeksi va mazmunini atroflicha muhokama qiling.
18.	Barchamizga ma'lumki, davlat ham fuqarolik munosabatlarida boshqa subyektlar kabi teng huquq asosida huquqiy munosabatlarga kirishadi. Davlatning fuqarolik huquqi subyeksi sifatida yoritib bering.
19.	Nikoh shartnomasi tushunchasi va mazmunini yoriting.
20.	Nikoh shartnomasining mazmuni, uni o'zgartirish va bekor qilish tartib-taomillarini atroflicha tahlil qilgan holda javob bering.
21.	Nikoh tuzish tartibi va shartlarini oila qonunchiligi asosida atroflicha tahlil qilib bering.
22.	Oila qonunchiligiga ko'ra, er va xotinning umumiy mulkini amaliy misollar orqali atroflicha tahlil qilgan holda javob bering.
23.	Oila qonunchiligi asosida er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish tartib-taomillarini tushuntirib bering.
24.	Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda ulushlarni aniqlash tartibini oila qonunchiligi asosida tahlil qilgan holda javob bering.
25.	Oila huquqiga ko'ra ota-ona va voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
26.	Jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslarini misollar asosida tushuntirib bering.
27.	Oila huquqiga ko'ra er va xotinning huquq va majburiyatlarini ko'rsatib o'ting.
28.	Oila huquqi va uning tamoyillarini yoritib bering.

29.	Oila huquqi tushunchasi. Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi masalalarini tushuntirib bering.
30.	Oilaviy-huquqiy munosabatlar. O‘zbekiston Respublikasida Oila huquqining manbalarini ko‘rsatib o‘ting.
31.	O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq er va xotinning umumiy mulkiga nimalar kirishini tushuntirib bering.
32.	O‘zbekiston Respublikasi Oila huquqi bo‘yicha nikohning haqiqiy emas deb topilishi asoslarini tushuntirib o‘ting.
33.	Bugungi kunda fuqarolik-huquqiy normalarni beshta kichik tarmoqlarga bo‘lish an‘anaga aylangan. Mazkur tarmoqlarni tahlil eting.
34.	Mehnat huquqi subyektlari sifatida kimlar ishtirok eta oladi? Ularga qo‘yiladigan talablarni tahlil qiling?
35.	Mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi va asoslarini muhokama qiling.
36.	Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi evaziga mehnat munosabatlarining subyektlari doirasi kengayib bormoqda. Ularni atroflicha muhokama qiling.
37.	Jinoyat tarkibi elementlari va ularning belgilarini tahlil eting.
38.	Jinoyat huquqining asosiy prinsiplarini bayon eting va amaliy misollar keltirib o‘ting.
39.	Ma‘lumki so‘ngi paytlarda mamlakatimizda ekologiyaga keng e‘tibor qaratilmoqda, shu o‘rinda Ekologik nazoratni tushuntirib bering.
40.	Ekologiya sohasidagi jinoyat turlarini misollar yordamida tushuntirib bering.
41.	Fuqarolarning ekologik huquqlarining amalga oshirilishi yoki ekologik huquqlarining aniq bayon qilinmaganligi ba‘zan ularni amalga oshirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib fuqarolarning ekologik huquqlarining kafolatlari mavjudmi?
42.	Jinoyat qonuni prinsiplarini yoritib bering.
43.	Jinoyatning belgilari va jinoyat tarkibiy elementlarining tavsifini muhokama qiling.
44.	Jinoyatlarni tasniflash nima maqsadda amalga oshirilishini va jinoyat tasnifini tushuntirib bering.
45.	Jinoyat tarkibi elementlarini atroflicha muhokama qiling.

46.	Jinoyat tarkibining fakultativ belgilarini ayting va tushuntirib bering.
47.	Xalqaro ommaviy huquqning xalqaro xususiy huquqdan farqli jihatlarini amaliy misollar yordamida tushuntirib bering.
48.	Xalqaro va milliy huquq o'rtasidagi farqli jihatlarini hamda ularning o'zaro ta'sirini yoritib bering.
49.	Xalqaro huquq subyektlarini O'zbekiston Respublikasi misolida tushuntirib bering.
50.	Hozirgi davrda xalqaro huquqning roli hamda uning O'zbekiston huquqiy tizimidagi ahamiyatini yoritib bering.
Davlat va huquq tarixi	
1.	Davlat va huquq tarixini o'rganishning bo'lajak huquqshunos uchun ahamiyatini tushuntirib bering.
2.	O'zbek davlatchiligi tarixiy-huquqiy manbalarida qozilar xususida yozilgan asarlar bormi?
3.	2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi qanday nomlangan va uning asosiy yo'nalishlarini asoslang?
4.	Qadimgi Sharq mamlakatlarining ijtimoiy tuzumiga xos umumiy xususiyatlar haqida ma'lumot bering.
5.	Qadimgi Sharq davlatlari davlat tuzumining antik mamlakatlar davlat tuzumidan farqli tomonlarini tushuntirib bering.
6.	Sharq mamlakatlari huquq tizimining antik dunyo mamlakatlari huquq tizimidan farqli jihatlarini ajratib ko'rsating.
7.	Qadimgi Sharq mamlakatlarida ilk davlatlarning paydo bo'lishi sabablari, shart-sharoitlari va xususiyatlarini tushuntirib bering.
8.	Qadimgi Afinada demokratiya gullab-yashnagan davrda mansabdor shaxslarni mansab egallashlaridagi hozirgi kunda ham demokratik davlatlarda mavjud bo'lgan tamoyillar haqida ma'lumot bering.
9.	Qadimgi Yunoniston davlatlaridan Spartada hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan ayollarni qadrlash masalasi haqida ma'lumot bering.
10.	Qadimgi Misr huquq manbalarida mustahkamlangan va hozirgi kunda ham mazmunan ahamiyatini yo'qotmagan shartnomalar haqida ma'lumot bering.
11.	Xammurapi qonunlarida mustahkamlangan va hozirgi kunda ham mazmunan ahamiyatini yo'qotmagan shartnomalar haqida ma'lumot bering.

12.	Yaponiyada 604-yilda birinchi qonunchilik hujjati, Yamato podsholarining birinchi deklaratsiyasi – Syotoku Konstitutsiyasi, yoki 17 ta moddadan iborat Qonun paydo bo‘ldi. Unda qanday normalar belgilandi?
13.	O‘rta asrlarda Yaponiyada harbiy, moliyaviy va adliya ministrlklari bilan bir qatorda maxsus “umumiy ishlar” ministrligi mavjud bo‘lgan. U qanday ishlarni amalga oshirgan?
14.	O‘rta asrlarda Yaponiya jinoyat huquqining o‘ziga xos xususiyati haqida so‘zlab bering.
15.	O‘rta asrlarda Yaponiya jinoyat huquqida hozirgi zamon jinoyat huquqiga oid qanday umumiy prinsiplar mavjud emas edi?
16.	O‘rta asrlar Hindistonida ashyo huquqining muhim institutlaridan biri “benami”, “rejiya” kabi mulk shakllari bo‘lgan. Bular qanday mulkchilik edi?
17.	Angliya davlati tarixida yangi davrni boshlab bergan ingliz burjua inqilobining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
18.	Angliyada 1628-yilgi Huquq to‘g‘risidagi petitsiya qabul qilinib, unda hozirgi vaqtda ham inson huquqlariga oid asosiy hujjatlarda mustahkamlangan muhim me‘yorlar belgilangan. Shular haqida so‘zlab bering.
19.	Angliyada 1660-yilda Styuartlar restavratsiyasi sodir bo‘lgach qanday partiyalar shakllandi?
20.	Angliyada 1679-yil 26-mayda mashhur Xabeas korpus akt (Nayeeas Sorpus act), ya’ni shaxs huquqlari kafolatlari haqidagi akt qabul qilingan. U nima haqida edi?
21.	Angliyada 1689-yilda qabul qilingan “Huquqlar to‘g‘risidagi Bill” qanday me‘yorlar belgilagan?
22.	XVIII asrda ingliz konstitutsiyasining rivojlanishini belgilagan konstitutsiyaviy pretsedentning asosiy qoidalarini ko‘rsating.
23.	Buyuk Britaniyaning 1911-yilgi parlament haqidagi Akti qanday me‘yorlar belgiladi?
24.	1776-yil 12-iyunda Konvent tomonidan ma’qullangan Virginiya huquqlari deklaratsiyasida hozirgi vaqtda ham amalda bo‘lgan inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda o‘z aksini topgan qanday huquqlar mustahkamlangan edi?
25.	Shimoliy Amerika mustamlakalari mustaqillikka erishganidan so‘ng ularning har biri o‘z konstitutsiyalarini qabul qilgan edilar. Ularda qanday me‘yorlar belgilangan?
26.	Yangi davrda Angliyada qabul qilingan ayollar va bolalar mehnatiga taalluqli qanday qonunlarni bilasiz?
27.	1804-yilgi Fransiya Fuqarolik kodeksi nikoh haqida qanday me‘yorlar belgilagan?

28.	Davlat va huquq tarixi fani tarixiy-yuridik fan hisoblanishini amaliy misollar orqali tahlil qilgan holda javob bering.
29.	O‘zbekiston hududida ilk davlatlarning tashkil topishi va rivojlanish xususiyatlarini tahlil eting.
30.	Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” tarixiy-huquqiy manba bo‘la oladimi? Fikrlaringizni asoslab bering.
31.	“Avesto”da oila va nikoh munosabatlarini tahlil eting.
32.	Musulmon huquqining manbalarini tahlil eting.
33.	Movarounnahrda yetishib chiqqan olimlar haqida ma’lumotingizni asoslang.
34.	Burxonuddin Marg‘inoniy buyuk mutafakkir va faqihligini asoslab bering.
35.	Islom huquqshunosligi haqidagi fikr va mulohazalaringiz.
36.	Somoniylar davlatida davlat boshqaruvi qanday amalga oshirilgan?
37.	Xorazmshohlar davlatining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi fikr va mulohazalaringizni bayon eting.
38.	IX–XIII asrlarda Movarounnahrda davlatchilikning rivojlanishi.
39.	Amir Temur davlatida boshqaruv tizimi.
40.	“Temur tuzuklari” asarining mazmun-mohiyatini yoritib bering.
41.	“Temur tuzuklari”da boshqaruv madaniyatining o‘ziga xosliklari.
42.	“Temur tuzuklari”da vazirlarga qo‘yilgan talablarni tahlil eting.
43.	“Temur tuzuklari” asarida jinoyat va jazo masalalari.
44.	Amir Shohmurod islohotlarini tahlil eting.
45.	Amir Shohmurod islohotlari qaysi manbalarda o‘z aksini topgan?
46.	Amir Shohmurodning faoliyati haqida qaysi tarixiy manba mavjud?

47.	O'zbek xonliklari haqidagi ma'lumotlaringizni asoslab bering.
48.	Qaysi tarixiy manbalarda davlat boshqaruv masalalari tahlil etildi?
49.	Yangi O'zbekistonda inson huquqini himoya qilishning istiqbollari haqida fikringizni asoslab bering.
50.	Fransiyaning 1810-yilgi Jinoyat kodeksi haqida ma'lumot bering.
O'zbekiston Konstitutsiyasi. Konstitutsiyaviy huquq.	
1.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va tuzilishi.
2.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga oxirgi marta qachon o'zgartirish kiritilgan va ushbu o'zgartirishning qisqacha mazmuni nimalardan iborat?
3.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.
4.	O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi qanday?
5.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning qanday shaxsiy huquq va erkinliklari aks etgan?
6.	O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlari nimalardan iborat?
7.	O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining siyosiy huquqlari nimalardan iborat?
8.	O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari nimalardan iborat?
9.	O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari.
10.	Jamiyatning iqtisodiy negizi.
11.	Vijdon erkinligi nima? U haqda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nima deyilgan?
12.	Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari haqida nimalarni bilasiz?
13.	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari.
14.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining shakllanish tartibi.

15.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari nimalardan iborat?
16.	Kimlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanishi mumkin?
17.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi nechta deputatdan iborat va ular qay tartibda saylanadi?
18.	Kimlar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega?
19.	O‘zbekiston xalqi nomidan kim ish olib borishga haqli?
20.	Qonun qachon yuridik kuchga ega bo‘ladi?
21.	O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv organlarining qabul qilgan hujjatlarini to‘xtatish va bekor qilish vakolati kimga berilgan?
22.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday vakolatlarga ega?
23.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a‘zolarini tasdiqlash va lavozimidan ozod qilish vakolati kimga berilgan?
24.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibi kimlardan iborat?
25.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday umum majburiy bo‘lgan hujjatlarni qabul qiladi?
26.	O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi.
27.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va uning vakolatlari.
28.	O‘zbekiston Respublikasida saylov tizimi.
29.	O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni kim olib boradi?
30.	O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining tarkibi.
31.	O‘zbekistonda soliqlar qaysi davlat organi tomonidan joriy qilinadi?
32.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish tartibi haqida ma’lumot bering.
33.	Konstitutsiyaviy sud qanday organ?

34.	Fuqaro tushunchasiga ta'rif bering.
35.	O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplarini sanang.
36.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlarini sanang.
37.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlarini sanab o'ting.
38.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikerining vakolatlarini sanang.
39.	O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi haqida ma'lumot bering.
40.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik masalalari bo'yicha qanday qoidalar belgilangan?
41.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan oila masalalariga oid normalar haqida gapirib bering.
42.	Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi deganda nimani tushunasiz? O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlash masalalari haqida gapirib bering.
43.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Bosh vazirga ishonchsizlik votumini bildirish asosi va tartibi qanday?
44.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari qanday hollarda o'tkaziladi?
45.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi vakolatlariga nimalar kiradi?
46.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qanday huquqiy maqomga ega?
47.	O'zbekiston Respublikasi hududida qanday turdagi jamoat birlashmalari tuzish taqiqlanadi?
48.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining tarkibi qanday tarzda shakllantiriladi?
49.	O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi qanday organ?
50.	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qanday maqsadda tuziladi?